

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.X.Hakimov, A.A.Abdumalikov, Ё.З.Нуриддинов Объективные и субъективные факторы в возникновении первого периода восточного ренессанса (IX-XII вв.).....	5
D.E.Normatova, S.N.Muxammadova Dialektikaning paydo bo'lishi va uning namoyandalari.....	12
N.M.Axmadiyev Milliy o'zlikni anglashda Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari.....	15
Д.А.Исаева Влияние медиа на развитие античной философской мысли	18
I.A.Asatulloev Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati	22
O.B.Shokirov Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	28
R.B.Abduraxmonov Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	32
X.J.Toshpo'latov Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirishning falsafiy masalalari.....	36
A.I.Abdullaxo'jaev Is'hoqxon ibrat va "Tabodili zamon": ijtimoiy-falsafiy tahlil	39
I.T.Yuldashev Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili	43
A.A.A'zamjonov Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiiy-ijodiy imkoniyatlari.....	47
M.K.Soipova Fazl Ibn Ahmad ta'limotida ontologik masalalarning qiyosiy tahlili	51
S.F.Abdusattarova Models of social processes: a philosophical perspective on the interaction between humans and society.....	55
S.R.Xoldarov Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari	60
Sh.B.Samanova Atrof-muhit muvozanatida ekologik madaniyatning o'rni.....	66
R.Orziboyev G'oyaviy birdamlik tushunchasi va uning falsafiy tahlili.....	70

SIYOSAT

Z.Sh.Turg'unboyev O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy integratsiyasi ahamiyati: tahlil va kelajakdagi imkoniyatlar	74
Ф.М.Бафоев Проблемы нелинейного воздействия и неравновесность в современной мировой политике	80
A.To'xtasinov Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	84
U.U.Sattarov O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy asoslar.....	88
B.T.Shokirov Kiberxavfsizlikning davlat siyosat darajasiga ko'tarilishi: zamonaviy tahdidlar va strategiyalar	94



UO'K: 141:316.75

G'OYAVIY BIRDAMLIK TUSHUNCHASI VA UNING FALSAFIY TAHLILI

ПОНЯТИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ СОЛИДАРНОСТИ И ЕГО ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

THE CONCEPT OF IDEOLOGICAL SOLIDARITY AND ITS PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Orziboyev Rustamjon 

Pedagogika, psixologiya va san'atshunoslik fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada g'oyaviy birlik, g'oyaviy birdamlik tushunchalari asrlar osha insoniyat hayotining bir bo'lagi bo'lib kelganligi, g'oyaviy birdamlikning jamiyat ma'naviy taraqqiyotidagi ijtimoiy ahamiyati atroflicha yoritib beriladi. Shuningdek, g'oyaviy birdamlikka ega bo'lmagan millatlar, xalqlar davr shiddati va mamlakatlarning shafqatsiz kurashi ichida yo'q bo'lib ketishi mumkinligi falsafiy tahlil qilinadi.

Аннотация

В этой статье концепции идеологической солидарности подробно рассказываются о социальном развитии человеческой жизни, духовным развитием идеи, реализацией идеологической солидарности. Кроме того, философский анализ, что период народов, народов наций, наций и жестокой борьбы стран.

Abstract

In this article, the concept of ideological solidarity tells in detail about the social development of human life, the spiritual development of the idea, and the realization of ideological solidarity. In addition, a philosophical analysis that the period of peoples, peoples of nations, nations and the brutal struggle of countries.

Kalit so'zlar: жамият, ғоя, мафкура, ғоявий бирдамлик, маънавият, маънавий ишлаб чиқариш, миллат, халқ, маданият, олам.

Ключевые слова: общество, идеи, идеологии, идеологическая солидарность, духовность, духовное производство, нация, люди, культура, мир.

Key words: Society, ideas, ideologies, ideological solidarity, spirituality, spiritual production, nation, people, culture, world.

KIRISH

Kishilik jamiyati paydo bo'libdiki, inson kundalik faoliyatida rivojlanib, takomillashib boradigan muayyan e'tiqodni ifodalovchi ma'lum bir g'oyalarga tayanib ish ko'radi. Odatda bu e'tiqod muayyan ijtimoiy ta'limotlar vositasida ifodalanadi. Shu ma'noda, ijtimoiy ta'limot bilan o'zaro bog'liq bo'lmagan biror kishilik jamiyatini topishning imkoni yo'q. Zero, kishilar asrlar davomida qaror topgan ma'naviy tajriba, dunyoqarash negizida shakllangan ma'lum bir g'oyalarga, ya'ni g'oyaviy birdamlikka tayanib, hayot kechirib kelishadi.

G'oyaviy birlik, g'oyaviy birdamlik tushunchalari asrlar osha insoniyat hayotining bir bo'lagi bo'lib kelgan. Dunyo tarixida hech bir xalq yo'qki, g'oyaviy birdamliksiz dunyo sahnasida o'z o'rnini egallab, uyushgan millat sifatida shakllanmagan bo'lsa. Bugungi dunyo voqeligida eng ko'zga tashlanadigan jihatlardan biri shuki, g'oyaviy birdamlikka ega bo'lmagan yoki buni shakllantirishda bir qator kamchiliklarga yo'l qo'ygan millatlar, xalqlar davr shiddati va mamlakatlarning shafqatsiz kurashi ichida yo'q bo'lib ketishi muqarrar.

Har qanday jamiyat hayotida ma'naviyat, ma'naviy ishlab chiqarish, g'oya va mafkuralar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kishilar ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida olamni, atrof-muhitni to'laroq biladilar, ijtimoiy hayot qoidalarini o'zlashtiradilar, bir-birlari bilan insonlarcha munosabatda bo'lishni o'rganadilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida fuqarolik jamiyatiga xos xususiyati haqidagi g'oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, "Bu jamiyatlar ba'zilari to'liq, ba'zilari to'liqsiz bo'ladilar. To'liq jamiyatlar uch turli: buyuk jamoa, o'rtacha jamoa va kichik jamoa.

FALSAFA

Buyuk jamiyat – yer yuzidagi barcha joylar va yashovchi odamlar jamoasi. O'rtacha jamiyat – biror xalqni tashkil etadi. Kichik jamiyat – u yoki bu shahar axolisining birlashmasidir[1,238]. Bu fikrlardan ko'rinadiki, yer yuzida yashovchi odamlar jamoasi o'zlarining kasbkorlariga va kelib chiqishlariga qarab, g'oyaviy kurashchanlik fazilatlarini bilan kerakli bo'lgan yagona g'oya atrofida birlashadilar.

Inson – ijtimoiy mavjudot bo'lib, birlik, birdamliksiz yashay olmasligini tarix sahifalaridan juda yaxshi bilamiz. Shuning uchun ham inson o'z jamiyatini g'oyaviy birdamlik asosida shakllantirishga doimo harakat qilib kelgan. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, mazkur maqolada 136 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilayotgan O'zbekistonda millatlar o'rtasidagi g'oyaviy birdamlik qay darajada ekani, unga bo'lgan favqulodda zaruriyat va uni qay tarzda shakllantirish masalalarini ilmiy asoslashga harakat qilindi.

Ushbu fikrlarni asoslashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yetarlicha o'rganish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, qadriyatlar tizimiga kirgan milliy axloq-odob, urf-odat va an'analar, amaliy faoliyat bilan bog'liq meyorlar, ijtimoiy hamkorlik, birdamlik, kishilarning yoshi, kasbi, jinsi, irqiy xususiyatlarini inobatga olinadi. Faylasuf olim, falsafa fanlari doktori o'zining qadriyatlar falsafasi asarida ta'kidlab o'tganidek, - "Qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar va ularga erishish yo'llari haqidagi qarashlarda o'tmish ajdodlardan meros qolgan orzu-umidlar, vorislik, tasavvurlar ham katta ahamiyat kasb etadi"[2,118].

Birdamlik – kishilarning muayyan g'oyada yakdilligi, ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish jarayonida hosil bo'ladigan ma'naviy yaqinlikni anglatuvchi tushunchadir. Birdamlik bir guruh kishilar ma'lumoti, mehnati, malakasi, kasbiy mahorati va faoliyat ko'nikmalarining mutunosibligidir.

Jamiyat uchun, umuman ko'pchilik uchun foydali bo'lgan, ya'ni unum, rag'bat, farovonlik keltiruvchi omillarning barchasi ham birdamlik tamoyiliga mos kelavermaydi. Bunda kishilar faoliyat jarayonida umumiy birdamlikka kelishlari shart hisoblanadi. Shuningdek, g'oyaviy birdamlikning qadri faqatgina faqatgina moddiy ne'matlar bilan o'lchanmaydi, balki ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishida ham uning ahamiyati beqiyosdir. Keng ma'noda, g'oyaviy birdamlik ma'naviy ehtiyojlar bilan birga musiqiy merosga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Birdamlik ayrim hollarda ijtimoiy adolatning ekvivalenti sifatida qonun-qoidalarga rioya qilish, muayyan g'oya asosida kelishuv va iliq munosabatlar zahiriga quriladi. G'oyaviy birdamlik hayotda qanchalik mustahkam bo'lsa, ijtimoiy barqarorlikning zaruriy asosi shunchalik mustahkam bo'ladi. Bunda albatta, boshqa ma'naviy omillar singari g'oyaviy birdamlikni yuksaltirishda musiqiy meros ham ma'naviy qadriyatlarimiz kabi muhim ahamiyat kasb etadi. "Chunki ma'naviy qadriyatlarining xususiyatlari shakl va mazmun jihatidan o'zgarib, natijada inson ongi, tafakkuri va qarashlari xalqaro munosabatlar darajasida shakllanib boradi[3,102]", - deb yozadilar falsafa fanlari doktorlari T.Abdullayev hamda A.Qambarovlar.

NATIJALAR

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning g'oyaviy birdamlikni yuksaltirishda musiqiy merosdan oqilona foydalanishni amalga oshirish orqali xalqimizning tarixan shakllanib kelgan qadriyatlarini saqlab qolish uchun ma'naviy muhitni yaratamiz.

Birlik, birdamlik g'oyalari asrlar osha insoniyat hayotining bir bo'lagi bo'lib kelgan. Dunyo tarixida hech bir xalq yo'qki, birdamliksiz dunyo sahnasida o'z o'rnini egallab, uyushgan millat sifatida shakllanmagan bo'lsa. Bugungi dunyo voqeligida eng ko'zga tashlanadigan jihatlardan biri shuki, g'oyaviy birdamlikka ega bo'lmagan yoki buni shakllantirishda bir qator kamchiliklarga yo'l qo'ygan millatlar, xalqlar davrning shiddati va mamlakatlarning shafqatsiz kurashi ichida yo'q bo'lib ketishi muqarrar.

Mashhur fransuz faylasufi Emil Dyurkgeym g'oyaviy birdamlikni ikki turga – mexanik birdamlik hamda organik birdamlikka ajratgan. U mexanik birdamlikni umumiy o'ziga xoslikda asoslangan g'oyaviy birdamlik sifatida belgilaydi. Ushbu umumiy o'ziga xoslik ma'lum bir yo'nalishlarga yo'l ochadi, ya'ni jamiyat a'zolari belgilangan axloqiy madaniyat asosida bir-biriga yordam qo'llarini cho'zadilar. Ushbu turdagi g'oyaviy birdamlik an'anaviy jamiyatni aks ettiradi. Unda guruh bir xil andoza va meyorlar asosida ijtimoiylashgan bo'lib, uni "biz" degan kuchli tuyg'u birlashtirib turadi.

Organik birdamlik, aksincha, a'zolar tabaqalashgan, tafovutlashgan, lekin bir-biriga bog'liq bo'lgan zamonaviy jamiyatda paydo bo'ladi. Zamonaviy jamiyatning har xilligi, o'z navbatida, umumiy o'ziga xoslik hissi va u bilan bog'liq jihatlarni kamaytiradi. G'oyaviy birdamlik uchun turtki

funksionaldir: ya'ni u boshqalarga va jamiyatga yordam berish mening manfaatlarimga xizmat qiladi, - degan tamoyilga amal qiladi.

G'oyaviy birdamlik – kishilarning muayyan g'oyaga yakdillik bilan ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish jarayonida xosil bo'ladigan ma'naviy yaqinlikni anglatuvchi tushunchadir. Demak, g'oyaviy birdamlik milliy o'zlikni anglashning, millat abadiyligi va rivojlanishining asosiy omili desak aslo xato bo'lmaydi. Bu xususiyatlar barcha sohalar singari musiqiy merosga ham tegishlidir. Zero, musiqiy meros inson ma'naviy dunyosini boyitishning eng muxim vositalaridan biri bo'libgina qolmay, balki g'oyaviy birdamlikni rivojlantirishning muxim omili hamdir. Musiqiy merosimizning g'oyaviy birdamlikni anglashdagi roli shundaki, u ma'naviy qadriyatlarni saqlashga ham, boyitishga ham ta'sir etishga qodir.

Xalqimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida o'ziga xos rivojlanish bosqichini, o'ziga xos turmush tarzini, o'ziga xos falsafa va o'ziga xos madaniyatni yaratdi. Ana shu o'ziga xoslik g'oyaviy birdamligida ham to'la namoyon bo'ladi.

Tarixan o'zbek xalqi turfa xil o'tish davrlarini boshdan kechirdi. Bu vaqt davomida uning qoni o'zgardi, tafakkuri, dunyoqarashi, tili, madaniyati, o'zligi turfa xil shakllarni qabul qildi, yillar osha yangilanib boraverdi. Sir emas, millatga yangi qon bilan hamohanglikda yangi g'oya va o'zlik ham kirib singadi. Millatimiz bir necha bor o'zlik o'zgarishiga uchradi. Bulardan eng asosiysi dastavval o'n to'qqizinchi asr ikkinchi yarmidan boshlab yigirmanchi asr boshigacha, so'ngra o'tgan asrning 20 yillaridan 90-yillarigacha davom etgan rus mustamlakachiligining ayovsiz fikriy tizginlaridir.

MUHOKAMA

Jamiyatdagi ma'naviy yangilanishlar har bir insonni qalban-ruhan ezgu maqsadlar yo'lida birlashtirishga xizmat qiladi. Bu yo'lida milliy g'oya, milliy ma'naviyat har bir xalqning amaliy dasturiga aynalishi kerak. Birlashgan jamiyat yuksak metin qoyadek sobit turadi, birlasha olmagan jamiyat qumday sochilib ketadi, shuning uchun ham g'oyaviy birdamlik har bir mamlakatni, avvalo birlashgan fidoiylar yuksaltiradi.

Mustaqillik yillarida qayta shakllanish va birdamlik g'oyasi tomon harakatlar yuzaga chiqqan bo'lsa ham, g'oyaviy birdamlik masalalari keyingi o'n yillikda o'zining asl natijalarini ko'rsata boshladi. Jumladan, yoshlarimiz ajdodlar merosini qunt bilan o'zlashtira boshladilar, natijada ularda yurtga sadoqat, millatga fidoyilik, g'animlarga nafrat, qat'iyatlilik, insonparvarlik va millatparvarlik g'oyalarini o'zlarida singdira boshladilar. Shu bilan birga, bugungi rivojlanishning tayanchi bo'lgan birdamlik g'oyasi atrofida birlashib, haqiqiy ma'nodagi yangi O'zbekiston fuqarosiga aylanmoqdalar.

Har bir xalq qonida milliy mafkuraning ilk ildizlari yashaydi. Elu- xalqni bir bayroq ostida birlashtiradigan g'oya esa ana shu jon tomirlardan oziqlanadi. Bu esa insonlarda mafkuraviy immunitetni uyg'otish va g'oyaviy ta'sirchanlikni kuchaytirishda doimo muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, "G'oyaviy tarbiya jarayonida kishilarda yod va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. ...G'oyaviy immunitetni shakllantirish – g'oyaviy tarbiyaviy ish samaradorligining muhim mezonini hisoblanadi"[4,111].

Prezident Shavkat Mirziyoyev yetakchiligida "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan da'vatkor g'oya hayotimizga tobora chuqur kirib borayotgani, ayni shu asosda xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni ta'minlash, innovatsion taraqqiyot borasida muhim qadamlarni tashlaganimiz tom ma'noda e'tirofqa arzigulikdir. Eng muhimi, keng jamoatchilik, ayniqsa, yoshlarimiz yurtimizdagi barcha ijobiy o'zgarishlarning tashabbuskori va bunyodkoriga aylanmoqda. Zero, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari", degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarini shakllantirish – o'ta sharaflil vazifadir"[5,35].

"Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" kotsepsiyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy tizimni joriy qilish, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish, geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, xatarli tahdidlarga qarshi

FALSAFA

samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish kabi masalalar o'z yechimini topmoqda.

Avvalo, bevosita yosh avlod bilan ishlovchi ta'lim tizimi mas'uli sifatida aytishim mumkinki, bu ulug'vor g'oyaviy birdamlikning amaliy ifodasini yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, tafakkurini yuksaltirish yo'lidagi muhim tashabbus va islohotlarda aniq ko'ra oldik. Uchinchi Renessans poydevorini yaratuvchi oltin halqalardan biri bo'lgan oliy ta'lim tizimi milliy va xalqaro mezonlarni o'zida mujassam etgan yangilanish va o'zgarishlar bilan isloh qilindi. Yoshlarning iste'dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish davlatimizning bosh maqsadiga aylandi. Ayniqsa, ta'limning barcha bo'g'inlariga zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etishga qaratilgan sa'y-harakatlar munosib samara berayotganligi sir emas.

Dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan, kechagidan ulug'vor maqsadlar bilan oldinga intilayotgan mamlakatimiz yoshlari o'z taqdirini Vatan taqdiri bilan uyg'un ko'ra olishi, shaxsiy va umummilliy manfaatlarni birlashtira olishi g'oyaviy birdamlikni shakllanishida muhim va tayanch nuqtadir.

Shu o'rinda, qariyb bir asrdan ortiq davr silsilalarini yodga oladigan bo'lsak, ma'rifatparvar jadidlarimiz orzu qilgan, kurashib, intilib o'tgan timsol aynan yangi O'zbekiston g'oyasi bilan hamohang desak, aslo xato bo'lmaydi. Jadidchilik harakatining mohiyati ham milliy o'zlik va milliy ma'rifat asosida bunyod etilgan yangi Vatanni qurish, dunyoga ma'naviy-ma'rifiy porloq nigoh bilan qaraydigan yangi xalqni tarbiyalashdek ulug'vor maqsadga qaratilgandir. Bugun yangi O'zbekistonni yaratish, yurt yelkasini ezib kelgan kechagi og'riqlardan qutulib, butunlay yangicha hayot barpo etish maqsadi aynan jadidlarimizning ulug'vor sa'y-harakatlari bilan mushtarak, - deb bemalol ayta olamiz. Zotan, jadidlarimiz boshlab bergan ulug' yo'lni davom ettirishda har bir yosh, har bir yurtdoshimiz uchun g'oyaviy birdamlik zarurligini alohida ta'kidlash o'rindir. Bundan anglashiladiki, jadidlarning timsoli mayoq bo'lib porlab turibdi, ular boshlab qo'ygan g'oyaviy birdamlik Vatan va xalq birligiga, milliy taraqqiyotga asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

G'oyaviy birdamlik xalqning ma'naviy-ruhiy qudrati, g'urur-iftixori, ezgu orzu-intilishlari, ulug'vor manfaatlarini o'zida aks ettiradigan va shu yo'lda jamiyat a'zolarini birlashtiradigan, buyuk ishlarga safarbar etadigan kuch-quvvat manbai ekan, u jamiyat tasavvurida millat tarixi, uning bugungi kuni va kelajak taraqqiyotini uyg'unlashtirib, muttasil rivojlanib boradigan eng muhim tushuncha va tamoyillar tizimi sifatida gavdalanadi. Sog'lom fikrlaydigan har bir insonda o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish, uning yutuqlaridan faxrlanish, muammolariga befarq bo'lmaslikka chorlaydigan qudrat ham g'oyaviy birdamlikdir.

Buyuk xalqimizning qariyb uch ming yillik hayotiy a'moli aks ettirilgan "Avesto" kitobidagi "Ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal" g'oyasi bugungi yangi O'zbekiston shakllanayotgan g'oyaviy birdamligining asosiy tamoyili bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyatimiz hayotida buyuk tariximizdan, ajdodlarimiz qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, bashariyat erishgan umuminsoniy qadriyatlar hamda milliyligimizni bilish va anglashga qaratilgan azmu shijoatimizdan kuch olgan g'oyaviy birdamlik yangi O'zbekistonga xos va mos istiqbolni belgilash yo'lida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda har qanday millatni ma'naviy birlik asosida yuksak maqsadlar yo'lida birlashtiradigan yuksak ta'lim-tarbiya, ma'naviy kamolot, g'oyaviy birlik masalasiga bejizga alohida ahamiyat qaratilmayapdi. Zero, g'oyaviy birdamlik har bir millat hayotiga yangicha mazmun baxsh etadigan, xalqning tub manfaatlarini ifodalaydigan, uni ulug'vor maqsadlar sari birlashtiradigan va safarbar qiladigan eng ezgu, eng qudratli da'vatlar majmuidir. Aynan g'oyaviy birdamlik – ijtimoiy, ma'naviy zarurat, u jamiyatga yangicha ruh, shijoat bag'ishlaydi. Inson maqsadsiz yo'lini yo'qotadi, buyuk maqsadsiz ulug'vor ishlar qilolmaydi, deb bejiz aytilmagan. Ana shu maqsadlar yo'lida g'oyaviy birdamlik fidoyilik, vatanparvarlik g'oyalarini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2018. –B. 238
2. Nazarov Q. Aksiologiya. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Akademiya nashriyoti. 2011. –B. 118
3. Abdullayev T., Qambarov A.A. Shaxs va qadriyatlar dialektikasi. – Farg'ona nashriyoti. 2017. –B. 102
4. Nazarov Q.ning mas'ul muharrirligi ostida. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2001. –B. 111
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O'zbekiston. NMIU. 2020. –B. 35